

SHDPI Tarix Kafedrası O'qituvchisi **Bobojonov Behruz**

SHDPI 2-Kurs Talabasi **Otamurodov Doniyorbek**

SHDPI 1-Kurs Talabasi **Amonova Sevinch**

SHDPI 1-Kurs Talabasi **Inoyatova Gavhar**

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada Qadimgi dunyo tarixiga oid manbalarni o'rganishimizda juda boy arxivga ega bo'lgan Misrda ilk shaharlar va davlatlarning qay tarzda paydo bo'lganligi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Nil, Narmer, Memfis, iyeroglif, Nagada, nomlar.

**АННОТАЦИЯ:** В данной статье рассказывается о том, как появились первые города и государства в Египте, имеющем в нашем исследовании очень богатый архив источников, связанных с историей древнего мира.

**Ключевые слова:** Нил, Нармер, Мемфис, иероглиф, Нагада, имена.

**ANNOTATION:** This article talks about how the first cities and states appeared in Egypt, which has a very rich archive in our study of sources related to the history of the ancient world.

**Key words:** Nile, Narmer, Memphis, hieroglyph, Nagada, names.

**KIRISH.** Nil daryosi o'troq qishloq xo'jaligi asosida shakllangan birinchi Misr jamiyatlarining paydo bo'lishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Nil atrofidagi suv resurslari va unumdor tuproqlar aholining o'zlashtirishiga imkon yaratdi, bu esa qishloq xo'jaligining jadal rivojlanishiga zamin bo'ldi. Eramizdan avvalgi V ming yillikda Misrda bir necha kichik qishloqlar paydo bo'lgan va ular keyinchalik birlashib, ilk shaharlar shaklini ola boshlagan.[1]

**TAHLIL VA NATIJALAR.** Nil daryosi yillik toshqinlari bilan tuproqni unumdor qilib, dehqonchilik uchun qulay sharoit yaratgan. Shu sababdan ham Nil vodiysidagi qishloqlar asta-sekin yirik markazlarga aylanib bordi. O'troq hayot kechirgan qabilalar iqtisodiy resurslar uchun birlashgan holda jamiyat va davlat tuzilmalari shakllanishiga yo'l ochdilar. Misrda davlat tizimining shakllanishi jarayoni iqtisodiy, ijtimoiy va diniy ehtiyojlarga asoslangan. Mil.avv. IV ming yillikda bu hududda Yoqori (Janubiy) Misr va Quyi (Shimoliy) Misr davlatlari paydo bo'lgan. Bu ikki hudud Nil daryosining tabiiy geografik bo'linishi bilan ham bog'liq edi. Quyi va Yoqori Misrning birlashuvi ham Nil daryosi atrofida shakllangan qishloq va shaharlarning o'zaro aloqalari kuchayishi bilan sodir bo'lgan. Bu ikki davlatning birlashuvi taxminan mil.avv. 3100-yillarda amalga oshgan, va bu birlashuv Misrning dastlabki fir'avni Menes tomonidan amalga oshirilgani aytiladi. Menes Yoqori va Quyi Misrni birlashtirgan holda yagona davlatni tashkil qildi va ilk fir'avnlarni sulolasiga asos soldi. Misrda davlatning birlashishi bilan yangi boshqaruv tizimi shakllandi. Fir'avnlarni Misr jamiyatining oliy hukmdorlari bo'lib, diniy va siyosiy hokimiyatni o'z qo'lida tutganlar.[1] Fir'avn butun mamlakatning oliy vakili sifatida hisoblangan, va ularning hokimiyati ilohiy sifat bilan bog'langan. Boshqaruv tizimining muhim qismi vazirlar, oliy ruhoniylar va amaldorlar tomonidan amalga oshirilgan. Fir'avnlarni davlatni turli hududlarga ajratib, ularni boshqarish uchun o'z ishonchli odamlarini qo'yishgan. Bu orqali boshqaruv markazlashgan va davlat boshqaruvi yanada takomillashgan. Shuningdek, fir'avnlarni o'zlarini xudolar darajasida ko'rsatib, diniy boshqaruvni ham kuchaytirganlar. Misrda davlat tizimi va shaharlarning

rivojlanishi bilan bir qatorda ijtimoiy tuzilma ham rivojlandi. Jamiyat aniq tabaqalanib, fir'avn va zodagonlar oliy ijtimoiy qatlamni tashkil qilgan. Keyingi qatlamlarga ruhoniylar, amaldorlar, harbiylar, hunarmandlar va dehqonlar kirgan. Jamiyatning quyi qatlami esa qullar va ishchilar hisoblangan. Misrning madaniyati ham rivojlanib, diniy qarashlar va piramidalar qurilishi orqali namoyon bo'ldi. Shaharlar va ibodatxonalar atrofida ijtimoiy hayot qizg'in bo'lib, Misr xalqining diniy e'tiqodlari va ilohiyotga bo'lgan qarashlari jamiyatning barcha sohalariga chuqur kirib bordi. Shuningdek, qadimgi Misr yozuv tizimi - ierogliflarning paydo bo'lishi bu madaniyatning ilmiy yutuqlari va ma'naviy merosi haqida muhim manba sifatida xizmat qiladi. Qadimgi Misrda ilk shaharlar va davlatlarning paydo bo'lishi ko'plab omillarga bog'liq bo'lgan.[2] Nil daryosi yaqinidagi unumdor tuproq va suv resurslari bu jarayonni tezlashtirgan. O'troq dehqonchilik asosida shakllangan shaharlar keyinchalik davlat tuzilmalariga aylangan. Fir'avnlr boshchiligida yagona davlat tashkil topib, markazlashgan boshqaruv tizimi va ijtimoiy tuzilma rivojlanishiga sabab bo'lgan. Qadimgi Misrning madaniy va siyosiy merosi esa bugungi kunda ham insoniyat tarixining eng qadimgi va boy madaniyatlaridan biri sifatida qadrlanadi. Yangi podshohlik davrida (miloddan avvalgi 2-ming yillikning 2-yarmidan) Misrning qo'shni davlatlar bilan savdosi tobora kengayib bordi. Misrliklar Suriyadan don, chorva mollari, sharob, asal va Suriya hunarmandchiligi buyumlarini eksport qilgan. Misr savdogarlari Suriya orqali Xet davlati, Egey dengizi orollari va 13 Mesopotamiyadan tovarlar olib o'tishgan. Misrda dengiz floti bo'lganligi sababli Suriyadan ko'plab yuklar karvonlarda quruqlik yoki dengiz orqali jo'natilgan. Livandan katta miqdorda yog'och eksport qilindi. Sinay mis konlari asta-sekin kamayib borar ekan, Kipr orolining boy mis konlari katta ahamiyatga ega bo'ldi. Misrliklar Kiprga kumush va qimmatbaho hunarmandchilik buyumlarini eksport qilishgan. Misr fir'avnlari Kipr qirollari bilan dengiz qaroqchilariga qarshi birgalikda kurashish to'g'risida kelishib oldilar va bir-birlari bilan tinch savdo aloqalarini saqlashga harakat qilishdi. Mesopotamiyaning shimoli-g'arbiy qismida joylashgan Mitanni shtatidan misrliklar bronza, lapis lazuli, matolar, kiyim-kechak, moy, aravalar, otlar va qullar oldilar. Bobildan oltin va fil suyagi bilan bezatilgan kumush va qimmatbaho buyumlar olib kelingan. Qadimgi Misrda ilk shaharlar miloddan avvalgi IV ming yillikda paydo bo'lgan. Bu davrda Tinis, Hierakonpolis va Nagada kabi shaharlar iqtisodiy va siyosiy markazlar sifatida shakllangan. Ushbu shaharlar aholining zich joylashgan hududlari bo'lib, ularda hunarmandchilik va savdo markazlari rivojlangan.[3] Ilk shaharlar davlat tuzilishining asosiy bo'laklari bo'lib, ularning birlashuvi markazlashgan davlatning shakllanishiga zamin yaratgan. Nomlar va ularning birlikka kelishi Misrning dastlabki davlatlari nomlar deb atalgan. Nomlar kichik, o'ziga xos boshqaruv tizimiga ega bo'lgan hududlar edi. Har bir nom o'z boshlig'iga ega bo'lgan va ular orasidagi munosabatlar va nizolar davlat tuzilishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Nomlarning birlashuvi va ulardagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi markazlashgan davlat shakllanishining muhim bosqichi bo'lgan. Birinchi Sulola va Menes (Narmer) Qadimgi Misrning birinchi sulolasi miloddan avvalgi 3100-yillarda vujudga kelgan. Menes (Narmer) ismli podshoh Yuqori va Quyi Misrni birlashtirib, yagona davlatni tashkil etgan. Bu jarayon Qadimgi Misr tarixida muhim burilish nuqtasi bo'lib, markazlashgan davlatning shakllanishiga sabab bo'lgan. Menfis shahri davlat poytaxti sifatida tanlangan va davlat boshqaruvi bu yerdan amalga oshirilgan. Ijtimoiy va Iqtisodiy Rivojlanish Misrning markazlashgan davlat bo'lib shakllanishi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bilan bog'liq edi. Qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik va savdo Misr iqtisodiyotining asosiy tarmoqlari bo'lgan. Ijtimoiy tuzilma esa qatlamli bo'lib, podshoh, zodagonlar, ruhoniylar, hunarmandlar va dehqonlar kabi turli ijtimoiy guruhlarni o'z ichiga olgan.[4] Bu guruhlar o'rtasidagi ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlar davlatning barqaror rivojlanishini ta'minlagan. Madaniyat va yozuv Misr madaniyati va yozuvi davlat tuzilishida muhim rol o'ynagan. Iyeroglif yozuvi bilan yozilgan diniy va ma'muriy matnlar davlat boshqaruvida muhim ahamiyat kasb etgan. Misr san'ati va me'morchiligi, jumladan piramidalarning qurilishi, davlat hokimiyatining qudratini namoyish etgan. Ushbu madaniy

yutuqlar davlatning ichki va tashqi nufuzini oshirishda katta rol o'ynagan. Ilk dehqon jamoalari er. avv. VI-V ming yillikda Quyi Misrda Fayum vodiysida mavjud bo'lgan. Fayum manzilgohida g'alla ekinlari ekilgan, yirik va mayda qoramol boqilgan va baliq tutilgan. Bu madaniyatga mansub bo'lgan manzilgohdan suyak-garpun, toshdan yasalgan o'roqlar va loy idishlar topilgan. Shu vaqtda Yuqori Misrda chorvador dehqonlar yodgorligi topilgan joyiga qarab Tasiy madaniyati deb ataladi. Bu yerdan ko'plab qabrlar topilgan. Bug'doy ekilgan, mayda chorva mollari boqilgan, sirti qora va kul- rang loy idishlar yasalgan. Tasiylar urug' jamoasi bo'lib yashaganlar. Ulardan ko'ra yuqori rivojlangan Badari madaniyati (er. avv. IV ming yillik) ga tegishli aholi urug' jamosi bo'lib yashab chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanganlar. Yerga motiga bilan ishlov berilib, kichik kanallar qazilgan. Ov va baliqchilik ham mavjud bo'lgan. Badariylar kulolchilikni takomillashtirganlar. Er.avv. IV ming yillikning 1-yarmida Amrat manzilgohlari yanada yuqoriroq rivojlangan. Bu davrda ilk mustahkamlangan qo'rg'onlar paydo bo'lgan. Aholi soni o'sgan. Mis buyumlari ko'paygan, garpun-qarmoqlar yasalgan, ilk tilla bezaklar paydo bo'lgan. Kulollar naqshli idishlar tayyorlay boshlaganlar (ilk sulolagacha bo'lgan davr). Er. avv. IV ming yillikning II yarmida Gerzey davri (hozirgi Gerzi qishlog'i nomidan) sulolaviy davrgacha bo'lgan 2-bosqichda sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilikdan hunarmandchilik ajralib chiqqan. Ilk ijtimoiy tabaqalanish yuz beradi. Qazib ochilgan qabrlardan ko'plab buyumlar topilgan. Bu vaqtda ilk ibtidoiy qulchilik paydo bo'lgan. Qullar "tirik murdalar" deb atalgan. Misrning ilk davlatlari xo'jalik faoliyatini birgalikda oli, borishga intilgan dehqon jamoalarining birlashmalaridan paydo bo'ldi. Sug'orish inshootlarini rivojlantirish va yiriklashtirishga bo'lgan ehtiyoj davlat hokimiyatini shakllanishini rag'barlantirdi. Davlat hokimiyati sug'orish tizimini yaratish va ta'mirlashda yetakchilik qila boshladi. Misrning ilk davlatlari hajmi jihatidan uncha katta bo'lmagan edi. Keyinchalik Yuqori Misr 22 ta, Quyi Misr 20 ta katta bo'lmagan viloyat nomlar (Misr viloyatlarini antik yozuvchilar "nom" deb, ularni hokimlarini "nomarx" deb ataganlar) ga bo'lindi. Nomlarda iqtisodiy ehtiyojlardan kelib chiqib, birlashuv jarayoni kuchli bo'lgan. Nomlar o'rtasidagi uzoq urushlar nati-jasida er. avv. IV ming yillik oxirida Yuqori va Quyi Misrda ikkita yirik davlat vujudga keladi. Yuqori Misr hukmdori oq rangli toj, quyi Misr hukmdori qizil rangli toj kiygan. Birinchisining poytaxti Exnab (Nexen), ikkinchisining poytaxti Buto shahri bo'lgan.[5]

**XULOSA.** Qadimgi Misrning shahar va davlatlarining paydo bo'lishi haqidagi ma'lumotlar yetarlicha. Men foydalangan adabiyotlarda ham Misrning shahar va davlatlarining paydo bo'lish jarayoni haqida ma'lumotlar aytib o'tilgan. Bu adabiyotlardagi ma'lumotlar talabalar uchun tushuncha manba bo'la oladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A.Kabirov "Qadimgi Sharq tarixi". Toshkent-2016. "Tafakkur" nashriyoti.
2. Ravshan Rajabov "Qadimgi dunyo tarixi". Toshkent-2009.
3. "История мировых стилизаций".
4. Т.О'.Salimov "Jahon tarixi". Toshkent "Universitet"-2014.
5. Shuhrat Ergashev "Qadimgi sivilizatsiyalar". Toshkent "O'zbekiston"-2016.
6. Begaliyev, N., Xumoyun, A., & Shahlo, S. (2024). RTA OSIYO GIDROTEXNIKA INSHOOTLAR TARIXI SARDOBA VA KORIZLAR MISOLIDA. *UNIVERSAL JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES*, 2(9), 57-62.
7. Бегалиев, Н. (2024). БУХОРО–ҚАРШИ САВДО ЙЎЛИДА ЖОЙЛАШГАН САРДОБАЛАР. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 141-144.
8. Begaliyev, N. X. (2022). ETNOLOGIK TADQIQOTLARDA TERMINOLOGIYA MUAMMOSI. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(2), 69-72.

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

DEKABR

ANDIJON, 2024

9. Otamurodov, D. (2024). IMOM BUXORIY - BUYUK MUHADDIS ALLOMA. *YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI*, 1(01).
10. Sobit, K. (2023). THE LAUNCH OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL EVENTS IN THE NEIGHBORHOODS OF SHAHRISABZ CITY. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 6(1), 398-401.
11. Sunnatovich, Q. I., & Sobit, K. (2023). VARGANZA QISHLOG'IDAN TOPILGAN YODGORLIKLAR TARIXI (I-XV ASRLAR). *JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING*, 2(9), 33-35.
12. Bobokulovna, Q. F. (2024). RESPUBLIKA "TADBIRKOR AYOL" UYUSHMASINING AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOLANTIRISHDAGI ROLI. *TADQIQOTLAR. UZ*, 35(1), 111-113.
13. Qanoatova, F. (2024). TURIZM RESURLARINI SHAKLLANTIRISHDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINING AHAMIYATI. *YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI*, 1(01).
14. Tolibov, N. (2024). EKOTURIZM SOHASIDA TARIXIY JOYLAR VA OBIDALARNING AHAMIYATI. *YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI*, 1(01).
15. Nurillaevich O. B. et al. Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System // *Journal of Pharmaceutical Negative Results*. – 2022. – C. 984-989.
16. Aralovna O. G. et al. Ecological globalization and its social place in the globalization system of processes // *Journal of Survey in Fisheries Sciences*. – 2023. – T. 10. – №. 1S. – C. 5000-5006.
17. Ayonovna A. S. The Need for the Formation of Environmental Education and Upbringing in Young People in the Conditions of Environmental Globalization // *Global Scientific Review*. – 2023. – T. 13. – C. 7-10.
18. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o'g'li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ' // *TADQIQOTLAR. UZ*. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.
19. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o'g'li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ' // *TADQIQOTLAR. UZ*. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.
20. Otamurodov, D. (2024). IMOM BUXORIY - BUYUK MUHADDIS ALLOMA. *YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI*, 1(01).